

**BO'LAJAK OLIGOFRENOPEDAGOGLARNING KASBIY
KOMPETENTLIGINI O'ZIGA XOSLIGI.**

G'ulomova Aziza Anvarvna

Nizomi nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti óqituvchi.

Annotatsiya: Bolajak oligofrenopedagoglarning kasbiy kompetentligini shakllantirish jarayoni maxsus pedagogikaning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqola oligofrenopedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonida e'tiborga olinishi kerak bo'lgan asosiy omillarni va ularning o'ziga xos jihatlarini tahlil qiladi. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida bu mutaxassislarning tayyorlanishidagi zamonaviy yondashuvlar va samarali metodlar ko'rib chiqiladi. Maqolaning asosiy maqsadi — bolalar va o'smirlar bilan ishlashda pedagoglarning kasbiy kompetentligini oshirish va bu orqali ta'lim sifatini yaxshilashdir.

Kalit so'zlar: Oligofrenopedagogika, kasbiy kompetentlik,maxsus pedagogika pedagogik metodlar, ta'lim sifatini oshirish, maxsus ta'lim ehtiyojları,pedagogik tayyorgarlik,ta'lim metodikasi, defektologiya.

**ХАРАКТЕРИСТИКА ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ
БУДУЩИХ ОЛИГОФРЕНОПЕДАГОГОВ.**

Аннотация: Процесс формирования профессиональной компетентности молодых олигофренопедагогов является одним из основных направлений специальной педагогики. В данной статье анализируются основные факторы и их особенности, которые следует учитывать в процессе развития профессиональной компетентности олигофренопедагогов. Также рассмотрены современные подходы и эффективные методы подготовки этих специалистов в высших учебных заведениях. Основная цель статьи – повышение профессиональной компетентности педагогов в работе с детьми и подростками и тем самым улучшение качества образования.

Ключевые слова: олигофренопедагогика, профессиональная компетентность, специальная педагогика, педагогические методы, повышение качества образования, специальные образовательные потребности, педагогическая подготовка, методика обучения, дефектология.

**CHARACTERISTICS OF THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF THE
FUTURE OLIGOPHRENOPEDAGOGS.**

Abstract: The process of forming the professional competence of young oligophrenopedagogues is one of the main directions of special pedagogy. This article analyzes the main factors and their specific aspects that should be taken into account in the process of developing the professional competence of oligophrenopedagogues. Also, modern approaches and effective methods of training these specialists in higher education institutions are considered. The main goal of the article is to increase the professional competence of pedagogues in working with children and adolescents and thereby improve the quality of education.

Key words: Oligophrenopedagogy, professional competence, special pedagogy, pedagogical methods, improving the quality of education, special educational needs, pedagogical training, educational methodology, defectology.

Oligofrenopedagogika maxsus pedagogikaning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, aqliy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan ishslashni o‘z ichiga oladi. Aqli zaif bolalarning ta’lim-tarbiya sohasidagi muammolarini ushbu fan yechadi. Aqli zaif bola deyilganda bosh miyasining organik buzilishi natijasida bilish jarayoning pasayishi tushuniladi. Ular bilan ishslash qator fanlar yutuqlariga asoslanadi. Oligofrenopedagogika umumiy psixologiya, maxsus psixologiya, oligofreniya klinikasi, logopediya, pediatriya, nevropatologiya, anatomiya, genetika, fiziologiya va boshqa fanlar bilan bog’liq bo‘lib, ularning yutuqlaridan keng foydalananadi. Bolajak oligofrenopedagoglarning kasbiy kompetentligini shakllantirish jarayoni ko‘plab omillarni hisobga olishni talab etadi. Ushbu maqolada oligofrenopedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonida e’tiborga olinishi kerak bo‘lgan asosiy omillar va ularning o‘ziga xos jihatlari tahlil qilinadi. Oligofrenopedagogika fanining markazida muhim rol o‘ynovchi nuqsonning o‘zi emas, balki uning oqibatida yuzaga keluvchi ruhiy holatdir. Shuningdek, aqli zaif deb bu holatning turg‘unligini ham tushunamiz. Ayni shu mezonning bor yoki yo‘qligiga qarab aqliy qoloqlikning uning boshqa turlaridan farqlashimiz lozim. Aqliy qoloqlikning asosiy belgilari: a. Bosh miyada organik buzilishning mavjudligi; b. Bilish faoliyatining chuqur, umumiy buzilganligi; c. Bilish faoliyatlari buzilganligining turg‘un xarakterdaligi; Aqliy zaif bolalar guruhiga quyidagi bolalar kirmaydi: 1. Aqli rivojlanmaganlik, bosh miyaning organik buzilishlari bilan bog’liq bo‘lmagan pedagogik qarovsizliklar; 2. Ruhiy rivojlanishi orqada qolgan bolalar; 3. Chuqur nuutq kamchiliklari bo‘lgan bolalar

Kasbiy kompetentlik tushunchasi. Kasbiy kompetentlik — bu malakali va samarali faoliyat yuritish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar majmuasi. Oligofrenopedagoglar uchun bu tushuncha o‘ziga xos jihatlarni o‘z ichiga

oladi, jumladan, maxsus ta’lim metodlari va pedagogik yondashuvlar, bolalar psixologiyasi va pedagogikasi bo‘yicha chuqur bilimlar. Jamiyat talablarini qondirish hozirgi zamon o’qituvchisidan yuqori madaniyat, chuqur ma’naviyat, Vatan uchun javobgarlik hissi, mas’uliyatlilik, chuqur bilimga ega bo’lishi, o’z o’quvchilarining ijodiy potensialini rivojlantirishga pedagogik qiziqishi, innovatsion faoliyatga, o’z ustida ishslashga, kasbiy faollikka qobiliyatatlilik va shu kabi boshqa bir qator sifatlarni talab etadi. Shu sababli, komil shaxsni tarbiyalash masalasi bilan bir qatorda yana bir asosiy masala, ya’ni mutaxassisning kasbiy kompetentligini shakllantirish masalasi bugungi kunda o’ta muhim hisoblanadi. Mutaxassisning kompetensiyalarga ega, ya’ni faoliyatning qaysi usulini egallashi, nimalarni bajara olishi, nimalarga tayyorligini aniqlash – kompetentli yondoshuv deyiladi.

Oligofrenopedagoglarning kasbiy kompetentligini shakllantirish omillari

1. Maxsus ta’lim metodlari: Oligofrenopedagoglarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda maxsus ta’lim metodlari va pedagogik yondashuvlarni o’rganish muhim ahamiyatga ega. Bu metodlar bolalarning rivojlanishiga yordam beradi va ta’lim jarayonini individual yondashuv asosida olib borishni talab qiladi.

2. Psixologik tayyorgarlik: Bolalar psixologiyasi va pedagogikasi bo‘yicha chuqur bilimlar oligofrenopedagoglarning kasbiy kompetentligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ular bolalarning individual ehtiyojlarini tushunish va ularga mos ravishda ta’lim jarayonini tashkil etishda yordam beradi.

3. Amaliy tajriba: Amaliy tajriba kasbiy kompetentligini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Talabalar maxsus maktablar va markazlarda amaliyot o’tayotgan paytda, real sharoitlarda bolalar bilan ishslash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

4. Innovatsion texnologiyalar: Zamonaviy texnologiyalar va innovations yondashuvlar ta’lim jarayonini yanada samarali qilish imkonini beradi. Oligofrenopedagoglar uchun interaktiv usullar va texnologik vositalardan foydalanish katta ahamiyatga ega.

Oliy ta’limda tayyorgarlik jarayoni: Oliy ta’lim muassasalarida oligofrenopedagoglar tayyorgarligi maxsus o’quv dasturlari va fanlar orqali amalga oshiriladi. Ushbu dasturlar quyidagi jihatlarni o’z ichiga oladi:

1. Nazariy ta’lim: Kasbiy kompetentlikning nazariy asoslarini o’rganish, jumladan, pedagogika, psixologiya va maxsus ta’lim metodlari bo‘yicha chuqur bilim olish.

2. Amaliyot: Talabalar maxsus maktablar, reabilitatsiya markazlari va boshqa muassasalarda amaliyot o‘tash orqali o‘z bilimlarini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

3. Innovatsion texnologiyalar: Ta’lim jarayonida zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash va interaktiv metodlarni o‘rgatish.

Bundan tashqari, bo‘lajak pedagoglarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlarida kompetensiya tushunchasi muhimdir. Kompetensiya – o‘z bilimlarini tinmay boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, shu kun va davr talablarini his etishni, yangi bilimlarni izlab topish mahoratini, ularni qayta ishslashni hamda o‘z amaliy faoliyatida qo‘llashni talab qiladi. Kompetensiya egasi bo‘lgan mutaxassis muammolarni yechishda o‘zi o‘zlashtirib olgan, aynan shu sharoitga mos metod va usullardan foydalanishni yaxshi bilishi, hozirgi vaziyatga munosib bo‘lgan metodlarni tanlab olib qo‘llashi, to‘g’ri kelmaydiganlarini rad etishi, masalaga tanqidiy ko‘z bilan qarashi kabi ko‘nikmalarga ega bo‘ladi. Yordamchi maktablardagi tarbiya tamoyillari butun tarbiya jarayonini yaxshiroq tashkil etish maqsadida foydalaniladigan qonun-qoidalar majmuasidir. Bu qoidalarga tarbiyaning mazmuni, usullari va tashkil etish shakllari kiradi. Hamma maktablarda tarbiya tamoyillari bir xil ko‘rinishga ega. Ammo, yordamchi maktablarda aqli zaif bolalarning psixologik, jismoniy va hissiy nuqsonlariga ko‘ra o‘ziga xos yondashuvlardan ham foydalaniladi. Yordamchi maktablarda hayot va amaliyot bilan bog‘liqlik tamoyili yetakchilik qiladi. Buning mohiyatini tarbiyaga jamiyatning iqtisodiy va ma’naviy munosabatlarini, voqelikning qadriyatlarni, axloqi va estetikasini tatbiq etishdan iborat. Yordamchi maktabda o‘quvchilarni qaysidir sohaga ixtisoslashgan mehnat va kasbni tanlashi o‘qituvchilar, o‘quvchilar va ularning ota-onalari tomonidan chuqur anglab olinishi lozim. Yordamchi maktab tizimida bolani jamoada jamoa orqali va jamoa uchun tarbiyalash tamoyili ham o‘ziga xos o‘ringa ega. Bu tamoyil tarbiya tizimining jamiyat talablaridan kelib chiqadigan tamoyillaridan biri bo‘lib, uning tabiatli ishlab chiqarish vositalariga munosabat, hamkorlik va yordam munosabatlari bilan xarakterlanadi. Yordamchi maktab o‘quvchilari bilan amaliy ishslashda tarbiya usullaridan foydalanish ko‘nikmalari, malakalarini o‘rganish va hosil qilish qulay bo‘lish uchun ularni shartli ravishda bir necha guruhga birlashtirish mumkin. Yordamchi maktab o‘quvchilari ongini shakllantirish usullari, jamoatchilik xulq-atvorini shakllantirish yo‘llari, rag‘batlantirish usullari va o‘z-o‘zini tarbiyalash usullari ham qo‘llaniladi. 1895-yilda Kiyevda chiqarilgan Yeremenkoning “Oligofrenopedagogika” o‘quv qo‘llanmasida tarbiya usullari uchta: mashq qildirish, ishontirish va rag‘batlantirishdan iborat, deyilgan.

Axloqiy tarbiya masalasiga keladigan bo'lsak, uning mohiyati alohida shaxs uchun emas, balki butun jamiyatning kelajagi uchun ham muhimdir. Chunki axloqiy tarbiyalangan shaxslarsiz yordamida buyuk kelajakni qurish mumkin emas. Axloqiy tarbiya boshqa tarbiya turlaridan ahamiyati bilangina ajralib qolmasdan, murakkabligi bilan ham ajralib turadi. Shu o'rinda fransuz pedagogi, shifokori Eduard Segenning: "Aqli zaif bola aqlan bilmaydi, jismonan bajara olmaydi va ruhan xohlamaydi. Aqli zaif bola aqlan bila olardi, jismonan bajara olardi, agar u xohlasa. Barcha balo shundaki, dastlab u xohlamaydi.", degan fikrlari e'tiborga loyiqidir. Demak aqli zaif bolalar biror ish, topshiriq qilishni xohlamas ekanlar. Umumiyligi psixologiya, maxsus psixologiyadan ma'lumki, agar inson biror ishni qilishni xohlama, bu jarayon juda murakkab kechadi. Axloqiy tarbiyani shakllantirish usullari, axloqiy tarbiya tamoyillariga oid fikrlar mutafakkirlar e'tiborini ham tortgan. Forobiy o'zining "Baxt-saodatga erishuv haqida risola" asarida: "Yaxshi xulq va aql kuchi birgalikdagina insoniy yutuqdir... Barcha go'zal va jirkanch axloqiy sifatlar hayot davomida shakllanadi", - deydi. Tibbiyot asoschisi Abu Ali ibn Sino o'z qarashlarida ta'lim-tarbiyada bolalarning qobiliyat va imkoniyatlariga alohida e'tibor berish kerakligi, inson ongli mavjudot ekanligi bilan hayvondan farqlanishini aytib o'tgan.

XULOSA

Oligofrenopedagoglarning kasbiy kompetentligini shakllantirish maxsus ta'lim ehtiyojlari bilan ishlashda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun oliy ta'lim muassasalarida nazariy va amaliy bilimlarni uyg'unlashtirgan holda o'qitish zarur. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yondashuvlardan foydalanish orqali ta'lim sifatini oshirish mumkin. Oligofrenopedagoglarning yuqori kasbiy kompetentligi bolalar va o'smirlar bilan ishlashda samarali natijalarga erishishning garovi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/pedagogikpsixologiya/oligofrenopedagogikaning-umumiyligi-masalalari-1>
2. <https://fayllar.org/oligofrenopedagogika-predmeti-maqsadi-va-vazifalaroligo.html>
3. <https://fayllar.org/1maxsuspedagogikafaniningpredmetivamaqsadivazifalarimaxsusps.html?page=18>
4. Maxsus pedagogika. Oligofrenopedagogika. P.M.Po'latova. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi. Toshkent-2005.